# Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-noyabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 12633,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 99,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,9 %) ni tashkil etdi.







***B**-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 58,9 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning - 84,6 % hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 98,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 109,4 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1403,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

### Gaz kondensati




### Tabiiy qumlar




### Tabiiy gaz




### Neft




### Shag‘al




### Chaqiq tosh



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Neft, ming t. | 485,2 | 28,3 | -456,9 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 29656,5 | 2292,8 | -27363,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 1281,6 | 260,2 | -1021,4 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 106,3 | 200,0 | 93,7 |
| Shag‘al, ming t. | 162,7 | 135,4 | -27,3 |
| Tabiiy qumlar, ming t. | 136,5 | 144,0 | 7,5 |

### Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8827,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,9 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi faoliyat turlari tomonidan ishlab chiqarish

| Faoliyat turlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **To‘qimachilik mahsulotlari mlrd. so‘m** | 2161,5 | 2201,7 | 40,2 |
| **Kimyo mahsulotlari mlrd. so‘m** | 2211,2 | 2629,4 | 418,2 |
| **Boshqa nometal mineral mahsulotlar mlrd.so‘m** | 356,6 | 306,9 | 49,7 |
| **Rezina va plastmassa buyumlar mlrd. so‘m** | 22,7 | 21,4 | -1,3 |

2020- yilning yanvar-noyabr holatiga Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘sish sur’ati 124,5 %, Rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 112,4 %, Boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish 104,3 %. hamda To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘sish sur’ati 102,2 % kuzatishimiz mumkin.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019- yilning yanvar-noyabr oylarida - 0,0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali -21,0 % (12,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 3,6 % (2,7 %) va quyi texnologiyali - 45,2 % (28,3 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,2 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 20,8 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,5 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,4 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4681,5 ming litr aroq (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 260,0 % ga o‘sgan),140,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (109,7 %), 187,2 ming tonna kaliy xlorid (103,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*

**Paxta tolasi**




**Kaliy xlorid**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta chigiti**




**Uzum vinosi**




**Aroq**




**O’simlikyog’i (tozalangan)**




**Asfaltli aralashmalar**




**Kalavaip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Og'irligi0,94 dan kam bo'lmagan polietilen,** ming t. | 122,9 | 120,7 | -2,2 |
| **Asfaltli aralashmalar,** ming t. | 93,7 | 66,5 | -27,2 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** ming t. | 127,9 | 140,3 | 12,4 |
| **Paxta tolasi,** ming t. | 39,9 | 37,8 | 2,1 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan),** ming t. | 9,3 | 6,9 | -2,4 |
| **Kaliy xlorid,** ming t. | 180,5 | 187,2 | 6,7 |
| **Plastmassaquvurlar,** ming t. | 4,2 | 4,4 | 0,2 |
| **Ip kalava,** ming t. | 22,0 | 23,3 | 1,3 |

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*






Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2330,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,4 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,6 % ga pasayganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 11700,5 | 8416,9 | -3283,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 3065,1 | 1119,8 | -1945,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish






Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 5145,7 | 916,3 | -4229,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 24625,0 | 31350,7 | 6725,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmartlar 127,3 % ga o‘sishi kuzatildi.

### Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4098,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,9 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 2,3 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,9 % ni, shuningdekKoson tumani 8,4 % ni, Shahrisabz tumani 8,2 % ni, Yakkabog' tumani 7,4 % ni, Shahrisabz shahri 7,1 % ni hamda Kitob tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (113,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shahrisabz tumani (116,8 %), Mirishkor va Nishon tumanlarida (115,9 %) ni Kasbi tumanida (115,7 %), Dehqonobod va Qamashi tumanlarida esa (115,5 %) hamda Kitob tumanida (114,3 %) qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 4098,6 | 100,0 | 102,4 |
| Qarshi sh. | 1282,8 | 31,3 | 101,4 |
| Shahrisabz sh. | 270,5 | 6,6 | 112,9 |
| G'uzor | 108,3 | 2,6 | 101,2 |
| Dehqonobod | 69,0 | 1,7 | 100,9 |
| Qamashi | 206,5 | 5,0 | 102,3 |
| Qarshi | 182,0 | 4,4 | 103,4 |
| Koson | 340,7 | 8,3 | 102,1 |
| Kitob | 244,2 | 6,0 | 102,5 |
| Mirishkor | 101,1 | 2,5 | 103,3 |
| Muborak | 94,5 | 2,3 | 97,9 |
| Nishon | 105,7 | 2,6 | 101,2 |
| Kasbi | 118,7 | 2,9 | 105,3 |
| Chiroqchi | 236,6 | 5,8 | 102,4 |
| Shahrisabz | 378,1 | 9,2 | 102,9 |
| Yakkabog' | 360,2 | 8,8 | 121,9 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 30,1 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 10,0 % ni, hamda Yakkabog' tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1632,1 | 100,0 | 186,2 |
| Qarshi sh. | 491,7 | 30,1 | 100,4 |
| Shahrisabz sh. | 94,7 | 5,8 | 117,8 |
| G‘uzor | 45,5 | 2,8 | 100,8 |
| Dehqonobod | 28,7 | 1,8 | 100,3 |
| Qamashi | 86,7 | 5,3 | 103,0 |
| Qarshi | 76,4 | 4,7 | 104,8 |
| Koson | 126,6 | 7,8 | 108,4 |
| Kitob | 101,8 | 6,2 | 102,9 |
| Mirishkor | 42,5 | 2,6 | 104,0 |
| Muborak | 39,6 | 2,4 | 100,3 |
| Nishon | 44,3 | 2,7 | 100,3 |
| Kasbi | 50,5 | 3,1 | 107,3 |
| Chiroqchi | 99,4 | 6,1 | 104,9 |
| Shahrisabz | 163,8 | 10,0 | 104,3 |
| Yakkabog‘ | 139,9 | 8,6 | 105,0 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 32,1 % ni, shuningdek, Yakkabog‘ tumani 8,9 % ni, Shahrisabz va Koson tumanlarida 8,7 % ni tashkil etib, o‘sish sur’atida esa eng yuqori ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (123,6 %), Yakkabog‘ (112,4 %) hamda Kasbi tumanida (103,8 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 2466,4 | 100,0 | 101,5 |

**Qashqadaryo viloyati.**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 791,1 | 32,1 | 102,0 |

**Qarshi sh.**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 175,8 | 7,1 | 123,6 |

**Shahrisabz sh.**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 62,8 | 2,5 | 101,6 |

**G‘uzor**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 40,3 | 1,6 | 101,3 |

**Dehqonobod**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 119,8 | 4,9 | 101,8 |

**Qamashi**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 105,6 | 4,3 | 102,4 |

**Qarshi**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 214,1 | 8,7 | 98,7 |

**Koson**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 142,4 | 5,8 | 102,2 |

**Kitob**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 58,6 | 2,4 | 102,9 |

**Mirishkor**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 54,9 | 2,2 | 96,2 |

**Muborak**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 61,3 | 2,5 | 101,9 |

**Nishon**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 68,2 | 2,8 | 103,8 |

**Kasbi**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 137,2 | 5,6 | 100,7 |

**Chiroqchi**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 214,3 | 8,7 | 101,8 |

**Shahrisabz**



| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 220,2 | 8,9 | 112,4 |

**Yakkabog‘**

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1781,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,1 % ni tashkil etdi.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 12633,6 | 100,0 | 99,7 |
| Qarshi sh. | 2606,6 | 20,6 | 101,8 |
| Shahrisabz sh. | 276,6 | 2,2 | 100,4 |
| G‘uzor | 2432,2 | 19,3 | 108,7 |
| Dehqonobod | 517,0 | 4,1 | 102,8 |
| Qamashi | 351,0 | 2,8 | 115,2 |
| Qarshi | 462,5 | 3,7 | 73,7 |
| Koson | 598,2 | 4,7 | 101,5 |
| Kitob | 292,0 | 2,3 | 101,9 |
| Mirishkor | 275,8 | 2,2 | 100,4 |
| Muborak | 563,2 | 4,5 | 70,9 |
| Nishon | 2595,7 | 20,5 | 100,3 |
| Kasbi | 327,6 | 2,6 | 120,5 |
| Chiroqchi | 325,6 | 2,6 | 110,3 |
| Shahrisabz | 545,0 | 4,3 | 103,8 |
| Yakkabog‘ | 465,2 | 3,7 | 108,1 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Muborak tumani (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 70,9 %), Qarshi tumanida esa (73,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da |
| --- | --- |




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 120,5 %), Qamashi (115,2 %), Chiroqchi (110,3 %) hamda G'uzor tumanlarida (108,7 %) sezilarli darajada oshdi.

**Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qarshi shahriga. (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,6 %) hamda Nishon tumani (20,5%), G'uzor (19,3 %) va Koson (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirishkor tumani va Shahrisabz shahriga (2,2 %) to'g'ri kelmoqda.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 3 829,3 | 1 242,3 |
| Qarshi sh. | 9 430,7 | 4 641,1 |
| Shahrisabz sh. | 1 981,2 | 1 937,6 |
| G’uzor | 11 864,6 | 528,2 |
| Dehqonobod | 3 492,4 | 465,9 |
| Qamashi | 1 290,1 | 758,9 |
| Qarshi | 1 856,5 | 730,6 |
| Koson | 2 086,6 | 1 188,5 |
| Kitob | 1 104,1 | 923,2 |
| Mirishkor | 2 296,0 | 841,7 |
| Muborak | 6 458,9 | 1 083,2 |
| Nishon | 16 910,4 | 688,3 |
| Kasbi | 1 657,6 | 601,6 |
| Chiroqchi | 787,4 | 572,1 |
| Shahrisabz | 2 452,6 | 171,4 |
| Yakkabog’ | 1 762,3 | 1 364,2 |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (16910,4 ming so‘m), G‘uzor (11864,6 ming so‘m), Qarshi shahrida (9 430,7 ming so‘m) hamda Muborak tumanlarida (6458,9 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 829,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 242,3 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi shahrida - 4 641,1 ming so‘mni, Shahrisabz shahrida - 1 937,6 ming so‘mni, Yakkabog‘ tumanida 1 364,2 ming so‘mni, Koson tumanida - 1 188,5 ming so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4267,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,8 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 95,8 %), Qamashi 86,6 %), Shahrisabz sh. (82,6 %), Chiroqchi (76,8 %), Yakkabog‘ (76,1 %), Mirishkor (73,7 %) hamda Koson (50,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Dehqonobod (2,1 %), Gʻuzor (2,7 %), Kasbi (2,8 %), Nishon (2,9 %) va Muborak (3,4 %) tumanlarida  sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2020- yil 1-Dekabr holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 3995 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 772 tasi (faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,3 % i) Qarshi shahriga, 471 tasi Kitob tumaniga (11,8 %), 356 tasi Yakkabogʻ tumaniga (8,9 %), 345 tasi Shahrisabz shahri (8,6 %), 325 tasi Chiroqchi (8,1 %) tumaniga toʻgri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|



2020- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatda 807 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 125 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 15,5 %), Qarshi shahrida, 93 tasi (11,5 %), Kitob tumanida, 79 tasi (9,8 %), Chiroqchi tumanida, 78 tasi (9,7 %), Yakkabog‘ tumanida tashkil etildi.

**Sanoat Statistikasi Bo'limi**
*Tel.: (75) 221-32-36*